

OILADA GENDER STREOTIPLARI: FARZAND TARBIYASI VA IJTIMOY HULQ ATVORNI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.

Abdusattarova Mavludaxon Rustambek qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti,
Texnologik ta’lim yo’nalishi 101- guruh
talabasi abdusattarovamavludaxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410692>

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot hurujiga qarshi ma’naviy axloqiy immunitet hosil qilishda oila psixologiyasining ro’li, gender streotiplari va ularning farzand tarbiyasiga va ijtimoiy ong ta’siri to’g’risida ma’lumotlar beriladi

Kalit so’zlar: Oila psixologiyasi, “Oila”, “Ona va bola yili”, “XXI asr oilasi”, etnofrafik, patriarxal monogam oila, gender stereotiplar, shaxs, individ, mafkuraviy immunitet, metodoliya, raqamli madaniyat, mediya savodxonlik, messenjerlar, kiber-tahdidlar,

Kirish. O’zbekiston Respublikasining asosiy an’analari, oilaviy urf-odatlar, milliy qadriyatlarini tarixiy – etnofrafik asosda o’rganilgan holda O’zbekiston oilalarining istiqbollini belgilovchi ustvor vazifalari va faoliyat strategiyalarni belgilashdan iborat.

“Oila”, “Ona va bola yili”, “XXI asr oilasi” davlat dasturlari O’zbekiston oilalariga mos milliy qadriyatlar darajasidagi oilaviy udumlar, rasm- rusmlar va an’analarni ilmiy jihatlarini ochishga yo’naltirilgan hujjatdir.

O’zbekistonda milliy g’oya va shaxs tarbiyasida oilaning ro’li katta va asosiy kuchning negizidir. Oilada - “oilaviy burch”, “hamjihatlik ruhi”, “Fidoyilik”, “vatanparvarlik” kabi qadriyatlar bola ongiga singdirilib boriladi. Oilada shaxs rivojlanadi. Shaxs deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug’ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Aynu vaqtda yoshlarimiz orasida ularning ongini zaharlovchi axborot xurujlari ko’payib bormoqda. Axborot xurujlarining asosiy maqsadi – davlat va xalq o’rtasida ishonchsizlikni, aholida shubha, ikkilanish, parokandalik, tartibsizlikni keltirib chiqarishdir. Ularga ma’naviy jihatdan qarshi kurashish oiladan boshlanadi. Buning negizida oila psixologiyasi asosiy o’rinni egallaydi.

XXI asrda axborot urushining o’ziga xos jihati urush vositalari, uslublarining ko’paygani, takomillashganida ko’rinadi. Bugungi kunda bunday urush internetda, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali ham olib borilmoqda.

Axborot xurujlari ta’siriga eng ko’p beriladigan aholi qatlami bu yoshlardir. Afsuski, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi axborot tahdidlarining ham kuchayishiga olib kelmoqda. Internet vositasida ishlaydigan dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali juda katta oqimda ma’lumotlar almashishi ro’y bermoqda. Ular asosan qiziqarli voqealar, gap-so’zlar, shou-biznes, sport xabarlarini, yangiliklardan iborat. Biroq hech kim tashqi kuchlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardan o’z maqsadi yo’lida foydalanmaydi, deb kafolat bera olmaydi.

Respublikamizning birinchi prezidenti muhtaram Islom Karimov “...bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko’proq kuchga ega” ekanligini ta’kidlagan edi. Mafkura poligonlarida kuchlar nisbati esa axborot, axborot xuruj vositasida hal etilmoqda.

Axborot xurujiga qarshi axborot xavfsizligini ta’minlash — buzg’unchi g’oyalar, soxta ma’lumotlar va kiber-tahdidlardan milliy manfaatlar, ma’naviyat hamda fuqarolar ongini himoya

qilishdir. Bunda asosiy e’tibor aholida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, axborotni saralash va raqamli makonda ogohlikni oshirishga qaratiladi.

Axborot xurujlarga qarshi kurashda quyidagilar muhim:

1. Axborot makonini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o’zgarishlar, aholining qiziqishi yuqori bo’lgan masalalar haqidagi ob’ektiv va pozitiv axborot bilan doimiy ravishda to’ldirib borish.

2. Fuqarolarimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks choralar ko’rilishi kerak. Xususan yoshlarimizni tafakkur qilishga, har qanday axborotni tahlil qilib so’ng xulosa chiqarishga o’rgatishimiz zarur.

3. Mamlakatimiz, davlat apparati, rahbarlar haqida noto’g’ri ma’lumotlar, tuhmat, uydirmalar, buzilgan axborot tarqatuvchi har qanday axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo’yish.

4. Aholiga chet ellarda turib mamlakatimiz to’g’risida noto’g’ri, bir taraf lama axborot tarqatuvchi axborot vositalari, shaxslarning asl qiyofasini ochib beruvchi axborotni etkazish.

5. Milliy g’oya, mafkura, ma’naviyat tushunchalari, shu jumladan fuqarolarimizning vatanparvarligi axborot xurujlariga qarshi muhim omillardir. Bu yo’nalishda amalga oshirayotgan ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish

Axborot xurujlariga qarshi kurashishning asosiy yo’nalishlari:

- Mafkuraviy immunitetni shakllantirish: Yoshlar ongini yot g’oyalardan asrash, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni mustahkamlash.

- Ogohlik va media savodxonlik: Noto’g’ri ma’lumotlar, tuhmat va uydirmalarni tarqatuvchi vositalarni aniqlash hamda ularning asl maqsadini ochib berish.

- Huquqiy va texnik choralar: Nomaqbul saytlarni bloklash, axborot xavfsizligiga oid qonun hujjatlarini mustahkamlash va kiberhujumlarga qarshi himoya tizimlarini ("Xavfsiz internet" dasturlari) joriy etish.

- Milliy kontentni rivojlantirish: Internet tarmog’ini ishonchli va mazmunli milliy ma’lumotlar bilan to’ldirish, g’arazli kuchlarga qarshi samarali qarshi targ’ibot olib borish. Yoshlarning axborot xurujlari ta’siriga tushib qolmasligi uchun ularning ma’naviy dunyo qarashini mustahkamlash, ularni tanqidiy fikrlashga o’rgatish hamda ularga axborotni tahlil qilishko’nikmalarini singdirish lozim. Bu esa jamiyatimizning mustahkamligi, milliy va madaniy qadryalarimizning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni axborot hurujidan himoya qilishning eng muhim jihatidan biri axborot xavfsizligini ta’minlashdir. Yani ylarda ma’naviy – ma’rifiy immunitetning o’rni beqiyosdir. Milliy umuninsoniy qadryatlarni chuqur o’rgangan yosh avlod har qanday zararli g’oyalarga qarshi turishga qodirdir.

Hozirgi kunada yana bitta kata taqdid bu - Gender stereotiplaridir .

Gender stereotiplaridir – bu jamiyatda erkaklar va ayollarning rollari, xulq-atvori va xarakter xususiyatlari haqidagi noto’g’ri yoki haddan tashqari soddalashtirilgan qarashlardir. Ular insonlarning imkoniyatlarini cheklab, "ayollar nozik va hissiyotli", "erkaklar esa kuchli va hissiz bo’lishi kerak" kabi qoliplarga soladi, bu esa ko’pincha tengsizlikka olib keladi.

Gender stereotiplari deganda, "erkaklarga xos" va "ayollarga xos" tushunchalarga mos keluvchi xulqatvor modellari va xarakter xususiyatlari to’g’risidagi andozalashtirilgan tasavvurlar tushuniladi. Gender stereotiplari oilaviy, professional va boshqa sohalarda muayyan ijtimoiy rollarni mustahkamlash bilan bog’liq. Ayollarga, odatda, asosiy vazifa sifatida oilaviy rollar – ona, uy bekasi, turmush o’rtog’i kabi, erkaklarga esa – professional rollar belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda aksariyat hollarda erkaklarga o’z kasb-korida erishgan yutuqlariga qarab, ayollarga esa – oilasi va bolalari mavjudligiga qarab baho berishadi. Afsuski, bizning jamiyatimizda ham ayollar

va erkaklarga nisbatan aynan shu qarash insonlar ongida mustahkam o‘rin olgan. Gender stereotiplari bu jamiyatda ayollar va erkaklar haqida shakllangan qattiq, ko‘pincha noto‘g‘ri yoki cheklovchi tasavvurlardir. Masalan, «ayollar uy ishlariga mos» yoki «erkaklar hissiyotlarini ko‘rsatmasligi kerak» degan fikrlar stereotip hisoblanadi. Gender stereotiplari shaxsning qobiliyatini, qiziqishlarini va imkoniyatlarini cheklashi mumkin. U ta’lim, ish joyi, siyosat va oilaviy hayotda tengsizlikni kuchaytiradi. Stereotiplar ko‘pincha ijtimoiy, madaniy va tarixiy odatlardan kelib chiqadi. Ular gender bias va kamsitilishlarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Gender stereotiplari bilan kurashish uchun xabardorlik va teng imkoniyatlarni targ‘ib qilish zarur.

Xulosa qilib aytilganda vatanimiz patriarxal monogam oila hisoblanadi. Chunki oilada erkak kishi boqaruv ro‘lida o‘tiradi. Oila iymonlik, insonpavarlik, diyonat, e‘tiqidlilik fazilatlarini yaratuvchi muhitdir. Oila milliy an‘analar, rasm-rusmlar, ota – onasiga, vatanga bo‘lgan muhabbatini bola ongiga singdiruvchi birinchi omildar. Yana dolzarb masalalardan biri yoshlarni axborot hurujidan himoya qilish – bu kelajak avlodga ishonchli poydevor yaratish demakdir. Bu masalaga befarq bo‘lish mumkin emas- bugungi mehnatimiz kelajakni belgilaydi. Bu masalani hal qilish oila psixologiyasining ajralmas bir qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI

1. Mirziyoyev. Sh. M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijaniob xalqimiz bilan birga quramiz.. Toshkent : O‘zbekiston.
2. O‘zbekiston Reaspublikasining Oila kodeksi. T: Adolat 1999 y
3. Karimova B. Oilaviy hayot psixologiyasi. T: 2020 y
4. Karimova B. Darslik. Oila psixologiyasi. T: 2008 y
5. F. I. Xaydarov . N. I. Xalilova . Umumiy psixologiya (darslik). Toshkent -2029
6. Chomiskiy P. (2020) Axborot vositalariva jamoarchilik fikri.
7. Gobanov P. (2018) Axborot urishlari va mafkuraviy tahdidlar
8. Usmonov .M. (2021) . Milliy qadryatlar va yoshlar tarbiyasi.. Mafkuraviy immunitetni shakillantirish yo‘llari.
9. Xusanbayevna, I. X. (2025, December). XORIJIY VA O‘ZBEK OLIMLARI TOMINIDAN IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUV MUAMMOSINI O‘RGANILISHI. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 9, pp. 589-594).